

O'ZBEKISTON PROFESSIONAL TA'LIMI VA KASBGA O'QITISH TIZIMINI RIVOJLANISHDA TARMOQ KENGASLARINING O'RNI

O'zbekiston kasb-hunar ta'limi tizimida islohot va modernizatsiya jarayonini qo'llab-quvvatlash-**TexVET**” loyihasining position hujjati

Samarali kasb-hunar ta'limi tizimining muhim ko'rsatkichlaridan biri uning mehnat bozori ehtiyojlariga yo'naltirilganligidir. Shuning uchun ham zamonaviy kasb-hunar ta'limi tizimini yaratishga intilayotgan mamlakatlar mehnat bozori talablarini o'qitish jarayoniga integratsiya qilish uchun o'z strategiyalarini ishlab chiqmoqda. Shu bilan birga, mamlakatlar kasb-hunar ta'limning barcha asosiy bosqichlarida – ehtiyojlarni aniqlash va kasbiy standartlarni ishlab chiqishdan tortib, o'quvchilarning malakasini baholash va sertifikatlashgacha bo'lgan davrda ish beruvchilarning ishtirokini ta'minlash muhimligi tamoyildan kelib chiqadi.

Masalan, Germaniyada davlat va iqtisodiyotning yaqin hamkorligi kasb-hunar ta'limi tizimining muhim tamoyillaridan biri bo'lib, bunda davlat, ish beruvchilar va kasaba uyushmalari birgalikda kasb-hunar ta'limi uchun sharoitlar yaratadi. Bu standartlar va o'quv dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, kasb-hunar ta'limi sifatini baholash, sertifikatlashtirish va ta'minlashni o'z ichiga oladi. Korxonalar kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish bilan bog'liq tadbirlarni o'tkazish va moliyalashtirishda ham ishtirok etadi.

O'zbekistonning zamonaviy kasb-hunar ta'limi tizimi xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini hisobga olgan holda barpo etilmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi 287-sonli qarori bilan sakkiz darajali va malakaga erishishning moslashuvchan mexanizmlarini o'z ichiga olgan Kasbiy malaka, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi tasdiqlandi.

Kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimining muhim bo'g'inlaridan biri kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashlari (keyingi o'rinlarda - Tarmoq kengashlari) hisoblanadi. 2020-yil 31-dekabrda 4939-sonli Prezident qarori bilan 29 ta Tarmoq kengashlari, shuningdek Tarmoq kengashlariga professional standartlarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbir etish borasidagi faoliyatini uslubiy, tashkiliy va axborot jihatidan ta'minlashga ma'sul Mehnat bozori tadqiqotlari instituti tashkil etildi.

2020-yilda qabul qilingan "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonunga Tarmoq kengashlari va Malakani baholash markazlari to'g'risidagi modda kiritildi hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-sentabrdagi 616-sonli qarori bilan Tarmoq kengashlarining namunaviy nizomi tasdiqlandi.

Bizning maqsad

Quyidagilar Tarmoq kengashlarining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi:

- Mehnat bozori monitoringi asosida tarmoqlarning malaka hamda bilimlarga bo'lgan ehtiyojlari va tendentsiyalarni aniqlash;
- Tarmoqlar malaka doiralarini ishlab chiqish, joriy etish va takomillashtirish;
- Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha vazirliklar, idoralar va tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish;
- Norasmiy va informal o'qitishning natijalarini tan olish, validatsiya va akkreditatsiya (sertifikatsiya) qilish



Chapda: Ekologik mavzular bo'yicha kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari va rahbarlari uchun trening

O'ngda: Ijtimoiy sheriklik forumi, Nukus sh.

tizimini shakllantirish, shu jumladan malakani baholash markazlari faoliyatini tashkil qilish;

- Yoshlarni kasbga yo'naltirish va axborot materiallarini ishlab chiqish bo'yicha ishlarni tashkil etish;
- Tarmoq malakalari doiralari va kasbiy standartlardan kelib chiqqan holda, hizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchi kasblari klassifikatorini takomillashtirish.

"Aholi bandligi to'g'risida"gi qonunda Tarmoq kengashlari faoliyatining moliyaviy ta'minoti Tarmoq kengashlarini tashkil etgan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, birlashmalar, kompaniya va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Tarmoq kengashlari instituti O'zbekiston uchun yangilikdir va uni shakllantirish uchun Tarmoq kengashlariga moliyaviy, texnik va uslubiy yordam berish zarur.

TexVET loyihasining O'zbekiston Tarmoq kengashlarining rivojlanishiga qo'shadigan hissasi:

TexVET loyihasi Tarmoq kengashini kasb-hunar ta'limi tizimini takomillashtirish va uni mehnat bozori ehtiyojlariga yo'naltirishda muhim rol o'ynashi mumkin bo'lgan muhim institut sifatida ko'radi. Tarmoq kengashlari vazifasi norasmiy va informal o'rganish natijalarini tan olish, validatsiya va sertifikatlashdan iborat bo'lgan Malakalarni baholash markazlarini yaratish va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

TexVET loyihasining Tarmoq kengashlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha faoliyati quyidagi yo'nalishlarga qaratilgan:

- Normativ-huquqiy bazani yaratish / takomillashtirish va O'zbekiston Tarmoq kengashlarini yanada rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha maslahatlar berish (makro yoki siyosiy daraja);
- To'qimachilik, tikuvchilik va charm sanoati sohasida kasbiy malaka va bilimlar bo'yicha tarmoq kengashining strategik rejalashtirish va tashkiliy rivojlantirish; mehnat bozorini o'rganish; kasbiy standartlarni ishlab chiqish, shuningdek, yoshlarni kasbga yo'naltirish masalalarida salohiyatini oshirish (Meso yoki Institutsional daraja);
- Tarmoq kengashlari xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha dasturlarini yaratish, sinovdan o'tkazish va institutsionalizatsiya qilish (mikro yoki amalga oshirish darajasi);
- Ilg'or xalqaro tajribalardan samarali foydalanishni ta'minlash.

Bizning hamkorlarimiz:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasi Kambag'likni qisqartirish va bandlik vazirligi;
- "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi;
- To'qimachilik, tikuvchilik va charm sanoati sohasida kasbiy malaka va bilimlar bo'yicha tarmoq kengashi;
- Mehnat bozori tadqiqotlari instituti.

Nashrga tayyorlovchi: Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit (GIZ) GmbH

Bosh ofis Germaniyaning Bon va Eshborn shaharlaridaro'yxatdan o'tgan.

"O'zbekiston kasb-hunar ta'limi tizimida islohot va modernizatsiya jarayonini qo'llab-quvvatlash" loyihasi.

100069, O'zbekiston, Tashkent
Olmazor tumani, Sebzor ko'chasi 313 uy
Telefon +998 93 501 05 19

E-mail: nodir_raximov@giz.de

Sana

2023 yil, Iyun

Printed by

KVINTA PRINT

GIZ mazkur nashr mazmuni uchun javobgardir.

Loyiha buyurtmachisi: Germaniya iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot federal vazirligini (BMZ)